



## BUXORO VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

(Dastlabki ma'lumotlar)

Buxoro viloyatining doimiy aholisi soni 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra **1 976,8 ming kishini** tashkil etib, yil boshidan **29,7** ming kishiga yoki **1,5 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **726,0** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,7 %**), qishloq aholisi soni **1 250,8** ming kishi (**63,3 %**)ni tashkil etdi.



Doimiy aholi soni

**1 976,8** ming kishi



Tug'ilganlar soni

**43,2** ming kishi



O'lganlar soni

**9,1** ming kishi



Nikohlar soni

**16,9** ming birlik



Nikohdan ajralishlar soni

**2,1** ming birlik



Ko'chib kelganlar soni

**6,6** ming kishi




Ko'chib ketganlar soni

**11,0** ming kishi


**Doimiy aholi soni hisobini yuritishda**, hisobot yili boshidagi aholi soniga hisobot davrida tug'ilganlar va ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va ko'chib ketganlar soni ayirib tashlanadi.



**Doimiy aholi sonining taqsimlanishi**  
(2022-yil 1- yanvar holatiga ko'ra)




**Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi**






## Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati (2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, hududlarning viloyat jami aholisi sonidagi ulushi bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich G'ijduvon tumanida **15,8 %** ni, keyingi o'rinlarda Buxoro shahri **14,4 %** ni, Shofirkon tumani **9,2 %** ni va Jondor tumani **9,1 %** ni tashkil etgan.




## Hududlar kesimida aholi zichligi (2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 1 kv kmga to'g'ri keladigan aholi)



2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining **29,0** % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **58,5** % i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **12,5** % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**Tug'ilganlar soni**  
(yanvar – dekabr)



**2021 yil yanvar – dekabr oylarida**



2021-yilda **43,2** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **22,0** promilleni tashkil etdi hamda 2020-yilga nisbatan **0,5** promillega oshganligi kuzatildi (2020-yilda **21,5** promilleni tashkil etgan).



### Vafot etganlar soni (yanvar – dekabr)

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida **9,1** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,7** promilleni tashkil etdi.




### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha (2021 yil yanvar–dekabr)

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining **62,3 %** i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,3 %** i – o'simtalardan, **4,9 %** i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,1 %** i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **7,8 %** i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **0,9 %** i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda **10,7 %** i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

#### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha

yanvar – dekabr




**Asosiy o'lim sabablari bo'yicha 1 yoshgacha vafot etganlar**

(2021 yil yanvar–dekabr)

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida **0,3** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **8,1** promilleni tashkil etdi.

**Tuzilgan nikohlar soni**

(2021 yil yanvar–dekabr, ming birlik)

**Hududlar kesimida nikoh tuzganlik koeffitsiyenti**

(2021 yil yanvar–dekabr, 1000 aholiga nisbatan)





**Eng yuqori** nikoh koeffitsiyenti (promille), Buxoro shahri (9,7), Qorako'l (9,3), Shofirkon (9,0) tumanlarida kuzatildi.

**Eng kam** nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) Qorovulbozor (6,7), Romitan (8,0), Kogon (8,1) tumanlarida kuzatildi.



### Nikohdan ajrashganlar soni (2021 yil yanvar–dekabr, ming birlik)



### Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti (2021 yil yanvar–dekabr, 1000 aholiga nisbatan)




**Eng yuqori** nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (promille) Buxoro (2,1), Kogon (1,8) shaharlarida, Kogon (1,2), Buxoro (1,2) tumanlarida kuzatildi.



Eng kam nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (promille) Peshku, Jondor va Romitan (0,7), Olot, Qorako'l va (0,8) tumahlarida kuzatildi.



### Aholi migratsiyasi (2021 yil yanvar–dekabr, ming kishi)



Migratsiya saldosi Buxoro shahrida (-1,2 ming kishi), G'ijduvon (-1,1 ming kishi) va Qorako'l (-0,2 ming kishi) tumanlarida ko'chib ketganlar soni ko'chib kelganlar soniga nisbatan sezilarli darajada balandligi kuzatildi.

Migratsiya saldosinging ijobiy darajasi Buxoro (0,5 ming kishi) va Kogon (0,3 ming kishi) tumanlarida kuzatildi.